ABU-L-QOSIM AZ-ZAHRAVIY HAYOTI VA ILMIY FAOLIYATINING ASOSIY YO‘NALISHLARI

Ibrohimova G.M.
Farg‘ona davlat universiteti
gulhayoibrohimova@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o‘rta asr islom tibbiyotining yirik namoyandalaridan biri Abu-l-Qosim az-Zahraviyning hayoti, ilmiy shakllanish muhiti va tibbiyot rivojiga qo‘shgan hissasi tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi az-Zahraviyning ilmiy faoliyatining yetakchi yo‘nalishlarini aniqlash, uning Kitāb al-Taṣrīf li-man ʿajaza ʿan al-taʾlīf asarining tibbiyot tarixidagi o‘rnini baholash hamda al-Andalus tibbiy maktabi rivojidagi ahamiyatini ko‘rsatishdan iborat.*

Kalit so‘zlar: *Abu-l-Qosim az-Zahraviy, al-Andalus, Qurtuba, Kitāb al-Taṣrīf, jarrohlik, farmakologiya, farmatsevtika, islom tibbiyoti, tibbiyot tarixi.*

Annotation. *This article analyzes the life of Abu-l-Qasim az-Zahrawi, one of the major exponents of medieval Islamic medicine, the environment of scientific formation and his contribution to the development of Medicine. The main objective of the study is to identify the leading directions of az-Zahrawi's scientific activity, assess the place of his work Kitāb al-Taṣrīf li-man ʿajaza ʿan al-taʾlīf in the history of Medicine, and show its importance in the development of the Al-Andalus medical school.*

Keywords: *Abu al-Qasim al-Zahrawi, al-Andalus, Córdoba, Kitab al-Tasrif, surgery, pharmacology, pharmaceutics, Islamic medicine, history of medicine.*

Kirish. Abu-l-Qosim az-Zahraviy (taxminan 936–1013) o‘rta asr islom tibbiyoti tarixida, xususan, al-Andalus tibbiy maktabining rivojlanishi va jarrohlikning ilmiy-amaliy yo‘nalish sifatida shakllanishida muhim o‘rin egallaydi. Uning hayoti haqidagi ma’lumotlar nisbatan kam saqlangan bo‘lib, mavjud ma’lumotlarning asosiy qismi biobibliografik va tabaqot tipidagi manbalarda uchraydi. Shu sababli az-Zahraviyning ilmiy tarjimai holini tiklashda tarixiy-biografik manbalar bilan bir qatorda uning o‘z asarlaridagi ichki dalillar ham muhim ahamiyatga ega.

Az-Zahraviy haqidagi ilk ma’lumotlar al-Ḥumaydī, Ibn Ḥazm va Ibn Abī Uṣaybiʿah kabi mualliflarning asarlarida uchraydi. Mazkur manbalarda allomaning nomi, ilmiy mavqei, asari va vafot davri haqida ma’lumotlar berilgan. Al-Ḥumaydī az-

Zahraviyni ilm va fazilat sohibi sifatida tavsiflab, uning *Kitāb al-Taṣrīf li-man ʿajaza ʿan al-taʾlīf* nomli yirik tibbiy asarini qayd etadi (al-Ḥumaydī, 1966, p. 209). Ibn Ḥazm esa mazkur asarning nazariy va amaliy jihatdan yuqori qiymatga ega ekanini ta’kidlaydi (al-Ḥumaydī, 1966, p. 209).

Az-Zahraviy yashagan davr al-Andalus tarixida siyosiy va madaniy yuksalishning muhim bosqichiga to‘g‘ri keladi. Qurtuba xalifaligi davrida ilmiy faoliyat, kitobat, tibbiyot va dorishunoslik rivojlangan. Yunon tibbiy merosi arab tiliga tarjimalar orqali o‘zlashtirilib, mahalliy amaliy tibbiyot tajribasi bilan uyg‘unlashgan. Qurtuba esa G‘arbiy islom dunyosining muhim siyosiy, iqtisodiy va ilmiy markazlaridan biriga aylangan (Fierro & Samsó, 1998).

Mazkur tadqiqotning maqsadi Abu-l-Qosim az-Zahraviyning hayoti va ilmiy faoliyatining asosiy yo‘nalishlarini aniqlash, uning *Kitāb al-Taṣrīf* asarining tibbiyot tarixidagi o‘rnini baholash hamda al-Andalus tibbiy muhitining alloma ilmiy qarashlari shakllanishiga ta’sirini tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqotning asosiy vazifalari az-Zahraviy hayoti haqidagi asosiy tarixiy ma’lumotlarni tahlil qilish, uning ilmiy shakllanishiga ta’sir ko‘rsatgan al-Andalus tibbiy muhitini aniqlash, *Kitāb al-Taṣrīf* asarining mazmuni va ilmiy ahamiyatini tahlil qilish, az-Zahraviyning farmatsevtika va jarrohlik sohalaridagi hissasini aniqlash shuningdek, uning tibbiy merosining keyingi Yevropa tibbiyotiga ta’sirini baholashdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot tarixiy-manbashunoslik, qiyosiy-tarixiy va matniy-tahliliy metodlar asosida olib borildi. Manba bazasini az-Zahraviy haqidagi o‘rta asr arab biobibliografik asarlari, uning *Kitāb al-Taṣrīf* asari va mazkur merosga bag‘ishlangan zamonaviy ilmiy tadqiqotlar tashkil etdi.

Birinchi navbatda, al-Ḥumaydiyning *Jadhwat al-muqtabis fī dhikr wulāt al-Andalus* asari hamda Ibn Abī Uṣaybiʿahning tabiblar tarixiga bag‘ishlangan asaridagi az-Zahraviy haqidagi ma’lumotlar o‘rganildi. Ushbu manbalar orqali allomaning nomi, ilmiy mavqei, asosiy asari va hayotining xronologik chegaralari aniqlashtirildi.

Ikkinchi bosqichda *Kitāb al-Taṣrīf*ning mazmuni va tarkibi tahlil qilindi. Ayniqsa, asarning farmatsevtik va jarrohlikka oid qismlariga e’tibor qaratildi. Jarrohlikka bag‘ishlangan o‘ttizinchi maqola Spink va Lewis tomonidan tayyorlangan arabcha matn, inglizcha tarjima va sharh asosida o‘rganildi.

Uchinchi bosqichda az-Zahraviyning ilmiy merosi zamonaviy tarixiy tadqiqotlar bilan qiyoslandi. Jumladan, Hamarneh va Sonnedeckerning farmatsevtika tarixiga oid tadqiqoti hamda Pormann va Savage-Smithning o‘rta asr islom tibbiyotiga bag‘ishlangan asaridan foydalanildi. Tadqiqotda manbalararo qiyoslash usuli orqali az-

Zahraviyning tarixiy qiyofasi keyingi davr talqinlaridan ajratib ko‘rsatildi. Shu bilan birga, uning ilmiy merosida nazariya va amaliyotning o‘zaro aloqasi, tibbiy bilimlarning tizimlashtirilishi va kasbiy tayyorgarlik masalalariga alohida e’tibor qaratildi.

Natijalar. Manbalarda az-Zahraviyning to‘liq ismi Abu-l-Qosim Xalaf ibn Abbos az-Zahraviy shaklida qayd etiladi. “Az-Zahraviy” nisbasi uning Qurtuba yaqinidagi Madīnat al-Zahrāʾ bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. U yashagan davr Abdurahmon III, al-Hakam II va Hishom II hukmronlik qilgan Qurtuba xalifaligining ilmiy-madaniy yuksalish davriga to‘g‘ri keladi. Az-Zahraviyning tug‘ilgan sanasi birlamchi manbalarda aniq ko‘rsatilmagan. Zamonaviy adabiyotlarda u ko‘pincha taxminan 936-yilda tug‘ilgan va 1013-yilda vafot etgan deb beriladi. Biroq al-Ḥumaydī uning hijriy 400-yildan keyin vafot etganini qayd etadi (al-Ḥumaydī, 1966, p. 209). Shuning uchun 936–1013 sanalarini mutlaq xronologik fakt sifatida emas, balki zamonaviy tarixshunoslikda qabul qilingan taxminiy sanalar sifatida ko‘rsatish maqsadga muvofiq.

Az-Zahraviy faoliyatining tarixiy sharoitini Qurtuba xalifaligining ilmiy va madaniy hayotidan ajratib bo‘lmaydi. Bu davrda yunon tibbiy merosi, xususan, Galen va Dioskorid an’analari arab tilidagi tibbiy ilm bilan uyg‘unlashgan. Dorishunoslik, botanika va amaliy tibbiyotning rivojlanishi al-Andalus tibbiy maktabining shakllanishiga zamin yaratgan (Fierro & Samsó, 1998).

Ibn Abī Uṣaybiʿah az-Zahraviyni oddiy va murakkab dorilarni yaxshi bilgan, amaliy tabobatda mohir tabib sifatida tavsiflaydi (Ibn Abī Uṣaybiʿah, 1971, pp. 643–644). Bu ma’lumot allomaning faoliyatini faqat jarrohlik bilan chegaralash to‘g‘ri emasligini ko‘rsatadi. Az-Zahraviyning eng muhim asari *Kitāb al-Taṣrīf li-man ʿajaza ʿan al-taʾlīf* hisoblanadi. Asar nomi uning didaktik maqsadini anglatadi. Muallif tibbiyotga oid keng bilimlarni tartibga solib, amaliy tabiblar foydalanishi mumkin bo‘lgan yaxlit majmua yaratishga intilgan.

Al-Ḥumaydī mazkur asarni katta, mashhur va foydali asar sifatida baholaydi (al-Ḥumaydī, 1966, p. 209). Ibn Ḥazmning asarga bergan yuqori bahosi ham uning nazariya va amaliyotni birlashtirgan keng qamrovli tibbiy majmua sifatidagi mavqeini tasdiqlaydi.

*Kitāb al-Taṣrīf*ning mazmuni tibbiyotning turli yo‘nalishlarini qamrab oladi. Unda nazariy tibbiyot, kasalliklar, davolash usullari, parhez, oddiy va murakkab dorilar, farmatsevtik shakllar hamda jarrohlik masalalari yoritilgan. Shu sababli asarni faqat jarrohlik risolasi sifatida talqin qilish uning mazmuniy qamrovini toraytiradi. Az-Zahraviyning ilmiy faoliyatida farmatsevtika ham muhim o‘rin egallaydi. Hamarneh va Sonnedeckerning tadqiqotlari *Kitāb al-Taṣrīf*da dori tayyorlash texnologiyasi, dorivor

moddalarning tarkibi, farmatsevtik shakllar va malhamlarga katta e’tibor berilganini ko‘rsatadi (Hamarneh & Sonnedecker, 1963, pp. 23–33, 81–126). Ayniqsa, asarning “al-Adhān” deb nomlangan yigirma beshinchi maqolasi farmatsevtika tarixi nuqtayi nazaridan muhimdir. Unda dori vositalarining tarkibi va tayyorlanishi bilan bog‘liq ma’lumotlar uchraydi. Bu holat az-Zahraviy farmatsevtikani faqat dorivor moddalarning xususiyatlarini bilish emas, balki ularni tayyorlash va amaliyotda qo‘llash texnologiyasi sifatida ham tushunganini ko‘rsatadi. Ibn Abī Uṣaybiʿahning az-Zahraviyni oddiy va murakkab dorilar bilimdoni sifatida ta’riflashi ham ushbu xulosani mustahkamlaydi (Ibn Abī Uṣaybiʿah, 1971, pp. 643–644).

Az-Zahraviy merosining eng mashhur qismi *Kitāb al-Taṣrīf*ning jarrohlikka bag‘ishlangan o‘ttizinchi maqolasidir. Ushbu qism *al-Maqālah fī al-ʿamal bi-l-yad* nomi bilan mashhur bo‘lib, jarrohlik amaliyotining turli yo‘nalishlarini tizimli ravishda bayon qiladi. Mazkur maqolada kesish, kuydirish, yaralarni davolash, yiringli joylarni ochish, begona jismlarni chiqarish, suyak sinishi va chiqishlarini davolash, tish va og‘iz bo‘shlig‘iga oid muolajalar kabi amaliy jarayonlar yoritilgan. Shuningdek, jarrohlik asboblari, ularning shakli va qo‘llanish usullarining tasvirlanishi asarning muhim xususiyatlaridan biridir (al-Zahrāwī, 1973). Spink va Lewis tomonidan nashr qilingan materiallar az-Zahraviy jarrohlik amaliyotida anatomiya, tajriba va ehtiyotkorlikning muhimligini ta’kidlaganini ko‘rsatadi (al-Zahrāwī, 1973, pp. 2–3). Bu qarash jarrohlikni oddiy hunar emas, balki maxsus nazariy va amaliy tayyorgarlikni talab qiladigan tibbiy faoliyat sifatida ko‘rganidan dalolat beradi.

Az-Zahraviyning eng muhim yangiliklaridan biri jarrohlik asboblarini tizimli tasvirlash va ularning qo‘llanilishini tushuntirishdir. Asboblarning nomlari, vazifalari va amaliyotdagi o‘rnining qayd etilishi jarrohlik bilimlarini yozma ravishda standartlashtirishga xizmat qilgan.

Pormann va Savage-Smith az-Zahraviyning jarrohlik merosini o‘rta asr islom tibbiyotining muhim bosqichlaridan biri sifatida baholab, uning jarrohlik amaliyoti va asboblari haqidagi qarashlarini alohida ta’kidlaydi (Pormann & Savage-Smith, 2007, pp. 202–204). Shu jihatdan az-Zahraviy merosining ahamiyati faqat muayyan jarrohlik usullarining tavsifida emas, balki amaliy bilimlarni tizimlashtirish va ularni keyingi avlodlarga yetkazish imkonini beruvchi yozma model yaratganidadir.

Muhokama. Tadqiqot natijalari az-Zahraviyning ilmiy faoliyatini faqat jarrohlik bilan izohlash yetarli emasligini ko‘rsatadi. U tibbiyotning nazariy asoslari, farmatsevtika, klinik muolaja va jarrohlikni o‘zaro bog‘lagan qomusiy tabib sifatida namoyon bo‘ladi. Uning ilmiy merosining o‘ziga xos jihati mavjud bilimlarni amaliyotga moslashtirish va tizimlashtirishdan iborat. Al-Zahraviy qadimgi yunon

tibbiy merosini inkor etmagan, balki uni al-Andalusdagi amaliy tibbiyot tajribasi bilan uyg‘unlashtirgan. Natijada *Kitāb al-Taṣrīf* nazariy bilim va amaliy tibbiyot o‘rtasidagi bog‘liqlikni ifodalovchi yirik tibbiy majmuaga aylangan.

Az-Zahraviyning faoliyati al-Andalusdagi ko‘p manbali tibbiy muhit bilan ham bog‘liq. Yunon-arab tibbiy merosi, mahalliy dorishunoslik tajribasi va amaliy tabobat an’analari uning ilmiy qarashlari shakllanishiga ta’sir ko‘rsatgan. Shu sababli uning merosini faqat individual ilmiy iste’dod mahsuli sifatida emas, balki al-Andalusdagi ilmiy muhitning rivojlanishi bilan bog‘liq tarixiy hodisa sifatida baholash maqsadga muvofiq (Fierro & Samsó, 1998).

Az-Zahraviyning Sharq islom tibbiyoti bilan munosabatini ham aynan shu nuqtayi nazardan baholash kerak. Bag‘dod, Xuroson va Movarounnahrda tibbiyotning nazariy-falsafiy yo‘nalishlari rivojlangan bir paytda, al-Andalusda az-Zahraviy amaliy tibbiyot, farmatsevtika va jarrohlikni tizimlashtirishga katta hissa qo‘shdi. Bu ikki yo‘nalish bir-biriga qarama-qarshi emas, balki o‘rta asr islom tibbiyotining turli qirralarini ifodalovchi ilmiy an’analar sifatida qaralishi lozim (Pormann & Savage-Smith, 2007).

Shuningdek, az-Zahraviy tibbiy bilimlarning didaktik xususiyatiga katta e’tibor bergan. Jarrohlik amallarini yozma shaklda bayon qilish, asboblarni tasvirlash va amaliy jarayonlarning ketma-ketligini ko‘rsatish tibbiy bilimlarning o‘qitilishi va uzatilishini osonlashtirgan. Bu jihat uning asarini nafaqat ilmiy, balki ta’limiy manba sifatida ham muhim qiladi. Az-Zahraviy merosining keyingi tarixiy taqdiri ham uning ilmiy ta’sir doirasini ko‘rsatadi. *Kitāb al-Taṣrīf*ning jarrohlikka oid qismi lotin tiliga tarjima qilinib, muallif Yevropa ilmiy muhitida “Abulcasis” nomi bilan mashhur bo‘lgan. Shu tariqa uning jarrohlik haqidagi qarashlari arab-musulmon ilmiy muhitidan tashqariga chiqib, keyingi Yevropa tibbiy an’analariga ham kirib borgan. Demak, az-Zahraviyning tarixiy ahamiyatini uch asosiy jihatda umumlashtirish mumkin: birinchidan, u al-Andalus tibbiy bilimlarini tizimlashtirdi; ikkinchidan, farmatsevtika va jarrohlikni amaliy tibbiyot bilan bog‘ladi; uchinchidan, jarrohlik amaliyotini yozma, tasviriy va didaktik shaklda standartlashtirishga hissa qo‘shdi.

Xulosa. Abu-l-Qosim az-Zahraviy o‘rta asr islom tibbiyotining yirik namoyandalaridan biri bo‘lib, uning ilmiy faoliyati al-Andalus tibbiy maktabining rivojlanishida muhim bosqichni tashkil etadi. Uning hayoti haqidagi biografik ma’lumotlar cheklangan bo‘lsa-da, o‘rta asr mualliflarining xabarlari va *Kitāb al-Taṣrīf* mazmuni allomaning ilmiy faoliyatini yetarlicha aniq tasavvur qilish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari az-Zahraviyning ilmiy faoliyati uch asosiy yo‘nalishda namoyon bo‘lganini ko‘rsatdi: umumiy va klinik tibbiyot, farmatsevtika hamda

jarrohlik. Ayniqsa, *Kitāb al-Taṣrīf* ushbu yo‘nalishlarni yagona tibbiy tizimda birlashtirgani bilan ajralib turadi.

Az-Zahraviyning jarrohlik tarixidagi asosiy xizmati mavjud amaliy tajribani nazariy bilim, anatomiya, kasbiy tayyorgarlik va jarrohlik asboblari bilan uyg‘unlashtirib, tizimli ilmiy-amaliy shaklga keltirganidadir. Uning asarida jarrohlik amallarining ketma-ketligi, asboblarning tavsifi va bemor xavfsizligiga oid ehtiyotkorlik tamoyillarining berilishi tibbiy bilimlarni standartlashtirish jarayonida muhim ahamiyat kasb etgan. Shuningdek, az-Zahraviyning farmatsevtik qarashlari uning jarrohlik faoliyatini to‘ldirgan. Dorilarni tayyorlash, ularning shakli va qo‘llanish usullariga oid ma’lumotlar tibbiy muolajani kompleks yondashuv asosida tashkil etganini ko‘rsatadi. Umuman olganda, az-Zahraviy merosini faqat “jarrohlik otasi” kabi tor doiradagi ta’rif bilan cheklash maqsadga muvofiq emas. U al-Andalus ilmiy muhitida tibbiyotning nazariy, farmatsevtik va amaliy yo‘nalishlarini o‘zaro bog‘lagan, tibbiy bilimlarni tizimlashtirgan va ularni keyingi avlodlarga yetkazish uchun muhim yozma model yaratgan qomusiy tabib sifatida baholanishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdel-Halim R. E., Altwaijiri A. S., Elfaqih S. R., Mitwalli A. H. Extraction of Urinary Bladder Stone as Described by Abul-Qasem Khalaf Ibn Abbas Alzahrawi (Albucasis): A Translation of Original Text and a Commentary // Saudi Medical Journal. — 2003. — Vol. 24, № 12. — P. 1283–1291.

2. Abdulrazeq H. F., Ali R., Najib H., Doberstein C., Oyelese A., Gokaslan Z., Malik A. N., Asaad W. F., Greenblatt S. Al-Zahrawi (936–1013 AD): On the Surgical Treatment of Neurological Disorders by the Father of Operative Surgery // World Neurosurgery. — 2024. — Vol. 184. — P. 236–240.

3. Al Aloul A. Al-Zahrawi Surgical Instruments and Techniques: A Milestone in the History of Surgery and Biomedical Engineering // Medicine and Pharmacy Reports. — 2026. — Vol. 99, № 2. — P. 156–159. DOI: 10.15386/mpr-2963.

4. Al-Benna S. Albucasis, a Tenth-Century Scholar, Physician and Surgeon: His Role in the History of Plastic and Reconstructive Surgery // European Journal of Plastic Surgery. — 2012. — Vol. 35, № 5. — P. 379–387.

5. Al-Ghazal S. K. Al-Zahrawi (Albucasis): A Father of Operative Plastic Surgery in Europe // Journal of the British Islamic Medical Association. — 2020. — Vol. 5. — P. 34–39.

6. al-Ḥumaydī M. ibn Futūḥ. Jadhwat al-muqtabis fī dhikr wulāt al-Andalus. — al-Qāhirah: al-Dār al-Miṣriyyah li-l-Taʾlīf wa-l-Tarjamah, 1966. — 314 s.

7. Al-Rodhan N. R. F., Fox J. L. Al-Zahrawi and Arabian Neurosurgery, 936–1013 AD // Surgical Neurology. — 1986. — Vol. 26, № 1. — P. 92–95.

8. al-Zahrāwī. Taṣrīf li-man ʿajaza ʿan al-taʾlīf. Al-Maqālah al-thalāthūn wa-al-akhīrah / taṣḥīḥ: Quṭb al-Dīn Aḥmad. — Lakhnaw: Maṭbaʿ al-Kāʾin, 1908. — 240 s.

9. Ammar S. Abu al-Qasim al-Zahrawi (Abulcasis): Arab Pioneer of Surgery // Quaderni Internazionali di Storia della Medicina e della Sanità. — 1992. — Vol. 1, № 1. — P. 13–25.

10. Amr S. S., Tbakhi A. Abu Al Qasim Al Zahrawi (Albucasis): Pioneer of Modern Surgery // Annals of Saudi Medicine. — 2007. — Vol. 27, № 3. — P. 220–221.

11. Arvide Cambra L. M. Abulcasis Al-Zahrawi, The Surgeon of Al-Andalus // European Scientific Journal. — 2016. — Special edition. — P. 240–247.

12. Fierro M., Samsó J. Introduction // The Formation of al-Andalus: Part 2: Language, Religion, Culture and the Sciences / ed. by M. Fierro, J. Samsó. — Ashgate, 1998. — P. 1–40.

13. Hamarneh S. K., Sonnedecker G. A. A Pharmaceutical View of Abulcasis al-Zahrāwī in Moorish Spain: With Special Reference to the “Adhān”. — Leiden: E. J. Brill, 1963. — XII, 176 p.

14. Ibn Abī Uṣaybiʿa A. ibn al-Qāsim. ʿUyūn al-anbāʾ fī ṭabaqāt al-aṭibbāʾ / sharḥ wa-taḥqīq Nizār Riḍā. — Bayrūt: Dār Maktabat al-Ḥayāh, 1965. — 792 s.

15. Pormann P. E., Savage-Smith E. Medieval Islamic Medicine. — Edinburgh: Edinburgh University Press, 2007. — XIII, 223 p.